

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Sharafiddinov

Farg'ona viloyatini Rossiya imperiyasining xom ashyo bazasiga aylantirilishi
(XIX asrning ikkinchi yarmi)..... 203

M.M.Temirova

O'zbekistonda ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarining dastlabki bosqichlari 208

Q.Sulaymonov

Iqtisodiyotni globallashuvida informatsiyaning o'rni 213

X.E.Xodjamberdiyev

Ikkinchi jahon urushi yillarda O'zbekistonda agrar sohani rivojlantirilishi va uning aholi turmush tarziga ta'siri..... 216

A.A.Xakimov, O.Sh.Ubaydullayev

Farg'ona vodiysi shaharsozlik madaniyatining xususiyatlari va rivojlanishi
(Sho'rabashot dehqonchilik madaniyati misolida)..... 222

M.M.Abdullayeva

Zamonaviy o'zbeklar shaxsiyatida gender stereotiplarining namoyon bo'lish darajasi
(Namangan viloyati misolida) 226

F.Abdurasulova

Buxoro amirligida diniy ta'llimning Amir Shohmurod va Amir Haydar hukumronligi
davrida rivojlanishi 232

A.A.Aloxunov

Yangilangan saylov tizimi – yurt taraqqiyotining kafolati..... 236

M.B.Siddiqov

Ikkinchi jahon urushi yillarda pensiya tizimi 241

G.A.Abdug'aniyeva

Harbiy xizmatga chaqiruvlarda tibbiy ko'rikdan o'tkazish masalasi 247

N.V.Karimova

Farg'ona vodiysi antik davr shaharlari tarixiy–topografiyasining o'rganilishi..... 252

ADABIYOTSHUNOSLIK**A.G.Sabirdinov**

Xudoyerberdi To'xtaboyevning qahramon yaratish mahorati 257

G.V.Abdullayeva

Bolalar she'riyatida lirik qahramon masalasi..... 260

S.Q.Mamatova

Nuh Alayhissalom obrazining tarixiy asoslari..... 267

N.Y.O'roqova

Yangi o'zbek she'riyatida o'simlik obrazlari talqini 271

D.A.Qahharova

Lirikada ko'ngil timsolining genezisi va tarixiy takomili..... 280

S.A.Xaqnazarova

An'ana va novatorlik: nazariy asos, takomil va turlar 287

M.Islomova

Hayot haqiqati va badiiy tafakkur 290

A.A.Qayumov, D.G'.Gafurova

Badiiy detalning poetik vazifasi (X.Do'stmuhammadning "Jodi" asari misolida) 294

Y.B.Eshmatova

Turk hikoyachiligidagi an'ana va yangilanishlar sintezi..... 299

Д. О.Турдалиев

Интеграция устного народного творчества в сказках а.с. пушкина: фольклорные корни и литературные трансформации 303

F.B.Sultonqulova

Usmon Azim she'riyatida lirik qahramon tabiatи 306

G.A.Jurayeva

Bolalar she'riyatida shakliy -mazmuniy yangilanish hamda izlanishlar..... 310



AN'ANA VA NOVATORLIK: NAZARIY ASOS, TAKOMIL VA TURLAR

ТРАДИЦИЯ И ИННОВАЦИЯ: ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ ОСНОВА, СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ И ВИДЫ

TRADITION AND INNOVATION: THEORETICAL BASIS, IMPROVEMENT AND TYPES

Xaqnazarov Sayyora Abduraxmonovna 
Farg'ona davlat universiteti, katta o'qituvchisi

Annonatsiya

Ushbu maqolada an'ana va novatorlik to'g'risidagi adabiyotshunos olimlarimizning ilmiy –nazariy qarashlari hamda an'ana va novatorlikning adabiyotshunoslik sohasidagi nazariy asoslari o'z aksini topgan. Adabiyotshunoslikda an'ana antik davrlardan buyon o'rganilib kelinadi. Ularning adabiy an'ana xususidagi ilmiy-nazariy qarashlari misollar yordamida tahlil qilingan. Badiiy so'z qo'llash an'anasidagi o'ziga xos xususiyatlar ko'rsatib o'tilgan. Adabiy an'anining madaniy va ma'nnaviy shakllari ilmiy jihatdan yoritilgan. Bundan tashqari an'ana bilan doimo dialektik aloqada bo'lgan novatorlikning shoirlar ijodidagi o'rni va badiiy adabiyotdagi xususiyatlari tog'risida ilmiy qarashlar tahlil qilingan. An'ana va novatorlik adabiyot shakllanishida asosiy o'rinnegallaydi. Antik olimlarning an'ana va novatorlik xususidagi ilmiy qarashlarida o'zaro yaqinlikni kuzatamiz.

Аннотация

В данной статье изложены научно-теоретические взгляды наших литературоведов на традицию и новаторство, теоретические основы традиции и новаторства в области литературоведения. Традиция долгое время изучалась в литературоведении. На примерах анализируются их научно-теоретические взгляды на литературную традицию. Показаны специфические особенности традиций употребления художественного слова. Научно освещены культурные и духовные формы литературной традиции. Кроме того, анализируются научные взгляды на роль новаторства в творчестве поэтов и его особенности в художественной литературе. Традиции и инновации играют ключевую роль в формировании литературы. Мы наблюдаем взаимную близость в научных взглядах древних ученых на традицию и новаторство.

Abstract

This article reflects the scientific and theoretical views of our literary scholars on tradition and innovation, as well as the theoretical foundations of tradition and innovation in the field of literary studies. Tradition has been studied in literary studies since ancient times. Their scientific and theoretical views on literary tradition are analyzed using examples. The specific features of the tradition of using artistic words are shown. The cultural and spiritual forms of literary tradition are scientifically illuminated. In addition, scientific views on the role of innovation, which is always in dialectical contact with tradition, in the work of poets and its features in fiction are analyzed. Tradition and innovation occupy a key place in the formation of literature. We observe mutual proximity in the scientific views of ancient scholars on tradition and innovation.

Kalit so'zlar: an'ana, novatorlik, takomil, estetik ideal, tasviriy vositalar, rang-baranglik, badiiy tafakkur, falsafiy qarashlar, aktual tematika.

Ключевые слова: традиция, новаторство, совершенствование, эстетический идеал, изобразительные средства, многообразие, художественное мышление, философские взгляды, актуальные темы.

Key words: tradition, innovation, improvement, aesthetic ideal, visual means, diversity, artistic thinking, philosophical views, current topics.

KIRISH

An'ana, novatorlik atamalari ilm-fanda, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlarda faol ishlataladigan falsafiy tushunchalar bo'lib, ular har biri alohida ma'noga ega. An'ana deganda odatda ajdodlarning tarixan to'plagan ma'nnaviy qadriyatlarini avlodlarga uzatish (berish) vositasi tushuniladi. [5;3] Mazkur qarash an'anaga berilgan umumiy ta'rif hisoblanadi. Adabiyotshunoslikda an'anaga quyidagicha ta'rif berilgan: Traditsiya dunyoni badiiy idrok etish, bilish va o'zgartirish sohasida davrdan davrga, avloddan avlodga o'tib kelgan, zamon talabiga javob beradigan adabiy tajribalardir. U klassiklarimiz ijodiy laboratoriyasida sinalgan, o'z qimmatini yo'qotmagan, ilg'or estetik idealni, aktual tematikani, tasviriy vositalarni, uslubdagi rang-baranglikni, xalqchil badiiy nutq san'atini keyingi avlod tomonidan qabul qilinib, amalda qo'llanishini nazarda tutadi. [8;27]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Adabiyotshunos M.Yunusovning ushbu mulohazasida an'anuning bir nechta muhim xususiyatlari a) dunyonи badiiy idrok etish, b) bilish, o'zgartirish va ana shu jihatlarni keyingi avlod tomonidan qabul qilinishi alohida ko'rsatilgan. Bundan tashqari, yuqoridagi xususiyatlar ajdodlarning avlodlarga qoldirgan adabiy merosi, ma'naviy qadriyalari hamda ularga munosib voris masalasiga ishora qiladi. Ko'rindiki, an'ana madaniy va ma'naviy shaklda bo'lishi mumkin. Bu insonning turmush tarzi, olamni anglashi va bilishi, tajribalari majmuidan iborat bo'ladi.

An'ana bilan doimiy ravishda birga ishlatalidigan ikkinchi kategoriya novatorlik (manbalarda o'ziga xoslik ham deb yuritiladi hisoblanadi. Novatorlik ... – adabiy jarayon bilan bog'liq kategoriya, adabiy jarayonda an'ana bilan har vaqt dialektik aloqada mavjud bo'lgan hodisa, adabiyot taraqqiyotining muhim ichki omili, badiiy tafakkur rivojiga sezilarli ta'sir o'tkazib, keyinchalik an'anaga aylanuvchi muhim badiiy-estetik yangilik. Adabiy an'anaga saylab va tanqidiy munosabatda bo'lolan, o'z davrining badiiy-estetik ehtiyojlarini teran his etolgan ijodkorgina yangilik yaratishga qodir bo'la oladi. Masalan, o'zbek mumtoz adabiyoti an'analari bag'rida yetishgan Cho'lpion o'z ijodi bilan she'riyatimizga qator yangiliklarni olib kirdi.[7;205] Novatorlik deganda, ijodda yangilikni boshqalardan avvalroq ko'ra olish, his qilish va ularni badiiy tarzda ifodalab bera olish qobiliyati ham nazarda tutiladi. Bu jarayonda adiblar voqeа-hodisalar mohiyatini chuqur idrok etib, katta ijodiy kuch va jo'shqinlik bilan mehnat qiladilar. Poeziyamizdagи yangilikni ilgari bo'lмаган janrlarning o'zbek she'riyatida aks etishida va o'ziga xos o'rнн egalashida kuzatamiz. Buni bevosita Abdulla Sher ijodida va u qo'l urgan janrlar: hayku, oktava, sonetlar misolida ham ko'rishimiz mumkin.

NATIJA VA MUHOKAMA

Adabiyotshunoslikda an'ana va novatorlik masalasi juda qadim zamonalardan beri muhokama qilinadigan muammo sanaladi. Masalan, buyuk Aflatun quyidagilarni yozadi: Shunday qilib, nafrat faqat shoirlarni nazorat qilish va ularni o'z yaratiqlarida axloqiy obrazlarni yaratish majburiyatini yuklash lozim. Shunday mahoratililarni izlab topish kerakki, ular o'z iste'dodlari bilan go'zallik tabiatini va ezgulikni kuzatadigan bo'lsin. Bizning yoshlarga sog'lom makon aholisi kabi foydali bo'lsin.[6;119] Buyuk mutafakkir Aflatun sog'lom jamiyatni shakllantirishda badiiy adabiyotning o'rni, ahyamiyati bola tarbiyasida katta ahamiyatga egaligini ta'kidlar ekan, bolalarda keljakka ishonch, ezgu niyat bo'lishi aynan badiiy adabiyotdan ekanligini ta'kidlaydi. Bu yerda aytilgan fikr shunchaki oddiy fikrlar emas, u insoniyatning uzoq yillar davomida hayotni kuzatishi, tajriba to'plashi va hayot voqealarini mulohaza qilishining mahsuli sihatida baholanadi. Yuqorida aytigandek, borliqni badiiy idrok etish, bilish, keyin esa dunyonи yaxshi tomonga o'zgartirish vazifasi turibdi. Bu adabiyotning an'anaviy bosh mavzusi sifatida keyingi davr olimlari ishlarida ham takrorlangan.

Aflatun shu asarining boshqa qismida musiqiy tarbiya deganda san'atlar yordamida bolaga estetik tarbiya berishni nazarda tutadi: Agar bolalar go'dakligidan kerakli tarbiyani olsalar, musiqiy tarbiy tufayli qonuniylikka ko'nikishadi. [6;133] Olim bu yerda jamiyatda qonun darajasida o'matilgan tartib-intizom, moddiy va ma'naviy qonuniyatni nazarda tutib, bola boshqalarni hurmat qilishi, borliqqa estetik munosabatda shakllanishi zarurligini ta'kidlagan. To'g'ri mazkur fikrlar bugungi adabiyotshunoslik, xususan, she'rshunoslikka qanchalik aloqasi bor degan shubhaga boradigan kishilar topiladi. Ammo eng iste'dodli shoir ham o'z she'riyatida shakl va mazmun uyg'unligini, lirk kechinmaning tabiat bilan mutanosib bo'lishini nazarda tutadi. Shu ma'hoda olam va odam munosabatlarida tabiiylik, atrofdagilar (odam, hayvonot, o'simlik olami va h.)ga ezgu ko'z bilan qarash qonuniyati haqida fikr yuritadi. Bu borliqni badiiy idrok etishning asosini tashkil etadi. Demak, Aflatun ilgari surgan g'oya an'anaviy tarzda jahon adabiyotida, xususan she'riyatda yashab kelmoqda.

Boshqa bir yunon olimi Arastu esa an'ana so'zini bevosita qo'llamagan holda, o'xshatish qadimdan mavjudligi, ya'ni u bir avloddan ikkinchisiga an'ana tarzida o'tib kelayotganini yozadi: Zeroki, o'xshatish garmoniya va ritm singari qadimdan odamlarning tabiatiga xos xususiyatdir, odamlar qadimdan oq tabiatan o'xshatishga qobiliyatlidirlarki, ular, buni o'z-o'zidan tarqqiy ettira borib, badiha she'rlardan haqiqiy poeziyani yuzaga keltirdilar.[1;24] Olim ushbu o'rinda poeziyaning paydo bo'lishi haqida so'zlar ekan, avvalgi kishilarda mavjud bo'lgan o'xshatish qobiliyati, ana'anaviy tarzda keyingi avlod vakillariga o'tib, sekin-asta unga novatorona yondashilib yuksak poeziya shakllanganini ta'kidlaydi. Ko'rindiki, an'ana va novatorlik adabiyotning shakllanishida asosiy o'rnlardan birini egallaydi.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Abu Nasr Forobiyning ilmiy-nazariy qarashlari Aflatun, Arastu kabi antik olimlarning falsafiy qarashlariga yaqinlik an'anasi kuzatish mumkin: Yaxshi axloq va aql kuchi birgalikda inson fazilati hisoblanadi. Ularni egallagan ezgulik qiluvchi har narsada boshqalardan ustun va amalida komil bo'ladi.[2;12] Aytish kerakki, Forobi bu yerda jamiyatdagi yaxshi kishilar an'anasi haqida fikr yuritgan, ammo, shu fikrlarini rivojlantira borib, badiiy idrok, olamni yaxshiroq bilish an'anasi kishining rivojlanishida muhim o'rinn tutishini ham aytib o'tadi: Tiriklar qalbi his qiladi va tasavvur qiladi. Qachonki, ularda his etiladigan va tasavvur qilinadigan obrazlar shakli tugal paydo bo'lar ekan, shunda ular ba'zi obrazlarga o'xshashga intilishi. [2;64] Mazkur fikri bilan Forobi ijodkor kishilar o'z ideallariga intilishi an'ana shaklida yashab qolishiga diqqat qilgan. Darhaqiqat, ijod qilish, yoki borliqni badiiy idrok etish jarayonida ijodkor o'zi his etgan, tasvvur qilgan obrazga ma'nан tenglashishga intiladi. Bu esa badiiy idrok an'anasing asoslaridan biri sanaladi.

Abu Rayhon Beruniy ham hind, arab, fors, grek she'riyatini solishtiradi. Hindlarning chandas (she'r vazni haqidagi) ilmi, unda lirikadagi musiqiylik, ritm, vanz, qofiya, rukn, turoqlar haqida yuritayotib, janrlar va ularning yuzaga kelishida novatorlik o'rni salmoqli bo'lganini aytadi: She'r harf (bo'g'in)larining soniga qarab, nomlari ham turlicha bo'ladi. She'rga tobe bo'lib keladigan narsaga qarab ham nomlar shunday bo'ladi. Chunki ular qasidada hamma baytlarning bir xil bo'lishini istamaydilar, debocha singari rang-barang bo'lishi uchun barcha qasida baytlarini ko'p xil (vazn)larda tuzadilar.[3;125] Bir qarashda bu yerda tadqiqotimizdagi muammo ko'zga tashlanlanmayotgandek tuyuladi. Ammo olimning ma'lumotlari mazmuniga diqqat qilinsa, unda hindlarda ham an'anaviy shakllar bo'lgani, ammo qasida yaratishda ana shu an'anaga amal qilmasdan, boshqa yo'l tutilgani haqidagi xabarni uqib olish mumkin.

Shu o'rinda Abu Rayhon Beruniyning zamondoshi, suhbatdoshi bo'Igan Abu Ali ibn Sinoning ham poetika, xususan, she'riyat haqidagi fikriga ham to'xtalish lozim. Mabodo to'g'ri so'z sal o'zgatirilsayu, odatdagiday aytilmaydigan bo'lsa va buning ustiga unga ucha-muncha narsalar qo'shilgan bo'lsa, u holda bu narsa inson ruhiga xush keladi. Balki bunday so'zlarni obrazli qilib va rost aytish ham mumkin. Ehtimol, shu bilan obrazli gaplar orqali e'tibor rost va tuyg'ular tomonga qaratilgan ham bo'ladi. Bunday holatda obrazli gaplar taajjubga sazovor bo'ladi va undan kishi ruhi lazzatlanib, yengil tortadi. Narsa yoki hodisaga muvofiq kelguday bo'lsa, uni rost deb qabul qilinadi. Obrazli gap esa, so'z qanday aytilgan bo'lsa, o'shanday harakat qilishga qaratilgan bo'ladi. [4;5] Qomusiy olim badiiy so'z qo'llash an'anasi va uni qo'llashdagi o'ziga xoslik obrazli gapning mohiyatini ko'rsatgan. Odatdagidagi so'z qo'llash an'anasi gap mazmunini qanchalik ruvojlantirishi, shu orqali tinglovchiga ta'sir etish an'anasi kishi ruhiga xush yoqishiga urg'u bergan.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, an'ana va novatorlik hamda adabiy ta'sir masalasi adabiyotshunoslikning o'zak masalalaridan hisoblanib, uning tarixi qadim zamonlarga borib taqaladi. Adabiyotshunoslik taraqqiyoti davomida an'analar qayta ishlanib, takomillashib, ularga yangiliklar kiritilib insoniyatga xizmat qilib kelgan. O'zbek she'riyati an'analari, xalq og'zaki ijodi, mumtoz adabiyot, jahon adabiyotining ilg'or yutuqlari va shoirlarning individual izlanishlari hisobiga boyib, takomillashib bormoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. – Б.24
2. Аль-Фараби, Абу Наср Мухаммед. Социально-этические трактаты. – Алма-Ата: Наука, 1973. – С.12 (400 с.)
3. Аль-Фараби, Абу Наср Мухаммед. Социально-этические трактаты. – Алма-Ата: Наука, 1973. – С.64 (400 с.)
4. Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. Ҳиндистон. – Тошкент: O'zbekiston, 2022. – Б.125.
5. Абу Али ибн Сино. Шеър санъати. http://www.e-adabiyot.uz/adabiyotshunoslik/she'riyat_392.html
6. Коллектив. Фалсафа.Қомусий лугат. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 6.30 (491 б.) www.ziyouz.com.kutubxonasi
7. Платон. Государство. Пер. с древнегреч. А.Н.Егунова. – Москва: научный проект, 2015. – С.119 (398 с)
8. Платон. Государство. Пер. с древнегреч. А.Н.Егунова. – Москва: научный проект, 2015. – С.133 (398 с)
9. Куронов Д. Мамажонов З. Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – Б. 204-205 .
10. Юнусов М. Традиция ва новаторлик / Коллектив. Адабиёт назарияси (Адабий-тариҳий жараён). Икки томлик. II том. – Тошкент: Фан, 1979. – Б.26-27 (448 б.).